

AXBOROT BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

Hasanov Sunnattillo Shokir o'g'li
Matematika va informatika yo'nalishi 402-guruh talabasi
O'ktamov Madadjon O'ktam o'g'li
SHDPI "Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi"
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14999200>

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot bo'limini o'qitish metodikasining nazariy asoslari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari va samaradorlikni oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlari. Axborot, o'qitish metodikasi, axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari raqamli ta'lim, elektron ta'lim, interfaol o'qitish metodlari.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы методики обучения информационного отдела, методы использования современных технологий и пути повышения эффективности.

Ключевые слова. Информация, методика обучения, информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровое образование, электронное образование, интерактивные методы обучения.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the methodology of training the information department, methods of using modern technologies and ways to improve efficiency.

Key words: Information, teaching methods, information technologies, information and communication technologies, digital education, electronic education, interactive teaching methods.

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot bo'limini o'qitish muhim o'rin tutadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, o'quvchilarga axborotni to'g'ri tahlil qilish, undan samarali foydalanish va texnologik jarayonlarni tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantirish talab qilinadi. Ushbu maqolada axborot bo'limini o'qitish metodikasi, uning asosiy tamoyillari va samarali usullari yoritiladi.

Axborot bo'limini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarga axborotni yig'ish, tahlil qilish, saqlash va tarqatish jarayonlarini tushuntirish, shuningdek, ularga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini singdirishdan iborat.

Asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot tushunchasi va uning ahamiyatini o'rgatish;
- axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini tushuntirish;
- axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillarini o'rgatish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'rgatish;
- o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil axborot olish qobiliyatini shakllantirish.
- katta hajmdagi ma'lumotni qisqa vaqt ichida tushuntirish imkoniyati – o'quvchilarga asosiy g'oyalarni aniq va tizimli holda yetkazish mumkin.

– o'qituvchining bilim va tajribasini bevosita yetkazish – mavzuning muhim jihatlari va amaliy ahamiyati bo'yicha sharh berish.

– o'quvchilarning eshitish, yozish va fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Zamonaviy ta'limda quyidagi innovatsion yondashuvlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'qitish usullari va vositalari

– Ma'ruza va tushuntirish: Mavzuni nazariy jihatdan yoritish, asosiy tushunchalar va tamoyillarni izohlash.

– Amaliy mashg'ulotlar: Kompyuter sinflarida dasturiy ta'minot bilan ishlash, loyihalar yaratish.

– Interaktiv usullar: Guruhli muhokamalar, "aqliy hujum" usullari orqali o'quvchilarning faolligini oshirish.

– Elektron resurslardan foydalanish: Elektron darsliklar, ta'limiy platformalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini boyitish.

O'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar va boshqa raqamli resurslar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi.

Suhbat va muhokama usuli o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida savol-javob qilish orqali bilimlarni mustahkamlashni ko'zda tutadi. Suhbat davomida o'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi, ularning javoblarini tahlil qiladi va muhokama qiladi. Bu usul o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularni yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga undaydi. Informatika fani jamiyatni yanada rivojlantirish jarayonlariga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatning umumiy salohiyatini va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilovchi omillarga aylanmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish – zamonaviy sivilizatsiyasining eng muhim tarkibiy qismidir. Informatika fani tabiat va axborot va axborot jarayonlari bo'yicha asosiy texnik jihatdan fundamental fanga aylanmoqda. Bundan buyon maktab informatika kursining umumiy ta'lim va amaliy ahamiyati tobora o'sib boraveradi. Bu kurs katta gumanitar salohiyatga ega. U yosh axborot jamiyatidagi samarali faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Informatika o'qitish metodikasi pedagogikaning informatika fanini umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiya fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo'limi hisoblanadi.

Ta'limda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart – sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogic mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan ko'rinib turibdiki, ta'lim muassasalari o'quvchilarini mustaqil bilim olishiga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish va doimiy ravishda faolligini oshirib borish lozim. O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-

kommunikasiya vositalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligi ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo'lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." (2024): 38-41.
2. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
3. Октамов, Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
4. Madadjon, O'Ktamov. "PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING INFORMATIKADAN AXBOROT-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
5. O'G'Li, Madadjon O'Ktam. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
6. Usmon o'g'li, Musirmanov Shohboz. "IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI TURISTIK JOYLARNI REKLAMA QILISH VA MIJOZLAR BILAN SAMARALI ALOQA O'RNATISH." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.
7. Xabibullayevich, Abdullayev Safibullo, et al. "TECHNOLOGY OF ORGANIZATION OF ENVIRONMENT FOR THE DEVELOPMENT OF ERGONOMIC CULTURE." Harvard Educational and Scientific Review 1.1 (2021).
8. Beknazarova, Saida, et al. "METHOD OF FILTERING DIGITAL IMAGES BY PULSE CHARACTERISTIC IN THE SPECTRAL REGION." Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте 2021 (2021): 66-69.
9. Musirmanov, Shohboz. "TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.11.